


**Jizzax viloyatida  
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**  
2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan  
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Jizzax viloyatida 2025- yil yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 589,0 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,2 % ga o'sgan.

**Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)  
[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)  
[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)  
[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

## II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-sentabr oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

|                   | Ming so'm | O'sish sur'ati, % da |
|-------------------|-----------|----------------------|
| Jizzax viloyatida | 4589,0    | 119,2                |
| Jizzax shahri     | 6066,0    | 123,4                |
| Arnasoy           | 3923,7    | 120,6                |
| Baxmal            | 3577,0    | 112,1                |
| G'allaorol        | 4559,4    | 120,9                |
| Sharof Rashidov   | 3754,8    | 120,2                |
| Do'stlik          | 3435,7    | 119,7                |
| Zomin             | 3955,9    | 123,3                |
| Zarbdor           | 3714,5    | 109,0                |
| Zafarobod         | 4075,3    | 94,3                 |
| Mirzacho'l        | 3325,4    | 113,2                |
| Paxtakor          | 4099,8    | 120,2                |
| Forish            | 3093,1    | 113,8                |
| Yangiobod         | 3381,2    | 116,5                |

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Jizzax shahri 6066,0 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,4%), Zomin tumaniida 3 955,9 ming so'mni (23,3%), G'allaorol tumanida 4 559,4 ming so'mni (20,9%), Arnasoy tumanida 3 923,7 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 20,6%), ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Sh.Rashidov tumanida 3 754,8 ming so'mni (20,2%), Paxtakor tumanida 4 098,8 ming so'mni (20,2%), Do'stlik tumanida 3 435,7 (19,7%), Yangiobod tumanida 3 381,2 ming so'm (16,5%), Forish tumanida 3 093,1 (113,8%) va Mirzacho'l tumanida 3 325,4 ming so'mni (13,2%) ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Baxmal tumanida 3 577,0 ming so'm (12,1%), Zarbdor tumanida 3 714,5 ming so'm (9,0%) va Zafarobod tumanida 4 075,3 (94,3%) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025- yilning yanvar–sentabr oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

| Iqtisodiy faoliyat turi nomi                                | Ming so'm     | O'sish sur'ati, %da |
|-------------------------------------------------------------|---------------|---------------------|
| Sanoat                                                      | 5838,8        | 123,6               |
| Qurilish                                                    | 5352,6        | 101,6               |
| Savdo                                                       | 8932,5        | 140,1               |
| Tashish va saqlash                                          | 7438,4        | 101,3               |
| Yashash va ovqatlanish                                      | 3481,3        | 113,3               |
| Axborot va aloqa                                            | 8771,0        | 106,8               |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit<br>va vositachilik faoliyati | 12256,9       | 112,1               |
| Ta'lim                                                      | 3726,1        | 117,3               |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy<br>xizmatlar ko'rsatish       | 3525,2        | 114,2               |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish                         | 4247,3        | 126,7               |
| Boshqa faoliyat turlri                                      | 5859,2        | 124,5               |
| <b>O'rtacha</b>                                             | <b>4589,0</b> | <b>119,2</b>        |

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari Savdo sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 40,1 % ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa 8 932,5 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida ish haqi miqdori 4 247,3 ming so'mni tashkil etib, 24,5% ga, sanoat sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 5 838,8 ming so'mni tashkil etib, o'sish 23,6% ga, ta'lim sohasida 3 726,1 ming so'mni tashkil etib 17,3% ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 3 525,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2% ga, Yashash va ovqatlanish sohasida 3 481,3 ming so'mni tashkil etib o'sish 13,3% ga, oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida 12256,9 ming so'mni tashkil etib, 12,1 % ga, Axborot va aloqa sohasida 8 771,0 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8% ga, Qurilish sohalarida esa 5 352,6 ming so'mni tashkil etib, o'sish 1,6% ga, Tashish va saqlash sohasida 7 438,4 ming so'mni tashkil etib, 1,3% ga boshqa tarmoqlarga nisbatan o' sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

#### IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025 yilning 3-choragida savdo sohasida ish haqi miqdori 8 932,5 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 6 077,5 ming so'mga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, so'nggi besh yilda Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati 6 044,7 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 5 645,6 ming so'mga, axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 5 232,7 ming so'mga, sanoat sohasida 3 291,6 ming so'mga, qurilish sohasida 2 795,6 ming so'mga, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 1 624,2 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.


#### O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dynamikasi, ming so'm






**Sanoat sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 5 838,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 057,1 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 5 590,5 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 3 345,6 ming so'm ekanligi kuzatildi.

**Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm**




**Savdo sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 8 932,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'ida 10 467,8 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida 4 203,3 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida 3 141,4 ming so'mni tashkil etgan.

**Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm**




**Tashish va saqlash sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 7 438,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori quvurlar orqali yuk tashish 11629,4 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida 12 286,5 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 3 191,3 ming so'mni tashkil etgan.

**Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




**Axborot va aloqa sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 8 771,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish sohasida 8 865,4 ming so'm, axborot xizmati ko'rsatish sohasida 5 583,4 ming so'mni, aloqa sohasida 9 765,3 ming so'mni tashkil etgan.

**Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm**




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 12 256,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida 12200,8 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 13 984,9 ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**



#### Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 726,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 6 773,1 ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida 4 228,3 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida 3 909,8 ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa 2 119,1 ming so'mni tashkil etgan.



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

## V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Hisobot oyi uchun** nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

$W_n$  – nominal hisoblangan ish haqi;

$F$  – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

$L$  – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)